

Date: 27th April-2026

MAKTABGACHA 4-5 YOSHDAGI AUTIZM SPEKTR BUZILISHI BO'LGAN
BOLALARDA OG'ZAKI NUTQNI O'YIN ORQALI RIVOJLANTIRISH

Shoaxmedova Surayyo Komilovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Pedagogika psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya kafedrasida katta o'qituvchisi

Tel: 974017577

Anvarov Diyorbek Shokir o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Pedagogika psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya yo'nalishi talabasi

Tel: 332344773

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha 4-5 yoshdagi autizm spektr buzilishi bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni o'yin orqali rivojlantirish jarayonida sensor tizimlarning o'rni va ularni rivojlantirish texnologiyalari ilmiy asosda yoritiladi. Sensor integratsiya mashqlari, taktil, eshituv, vizual va propriozeptiv tizimlarni faollashtirish autizmlil bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: autizm, og'zaki nutq, sensor integratsiya, maktabgacha yosh, eshituv tizimi, taktil sezgi, muloqot, terapiya.

Аннотация: В данной статье научно обосновано значение сенсорных систем в процессе развития устной речи у дошкольников 4-5 лет с расстройствами аутистического спектра, а также рассмотрены технологии их развития. Доказано, что упражнения по сенсорной интеграции, активизация тактильной, слуховой, визуальной и проприоцептивной систем играют важную роль в формировании устной речи у детей с аутизмом.

Ключевые слова: аутизм, устная речь, сенсорная интеграция, дошкольный возраст, слуховая система, тактильная чувствительность, коммуникация, терапия.

Abstract: This article scientifically examines the role of sensory systems in the development of oral speech in preschool 4-5 children with autism spectrum disorder and explores technologies aimed at enhancing these systems. It is substantiated that sensory integration exercises, as well as the activation of tactile, auditory, visual, and proprioceptive systems, play a crucial role in improving oral speech formation in children with autism.

Keywords: autism, oral speech, sensory integration, preschool age, auditory system, tactile sensitivity, communication, therapy

Autizm spektridagi maktabgacha yosh bolalarda nutq va muloqot qobiliyatlari turlicha rivojlanadi. Shu sababli lug'atni rivojlantirishda o'yin asosiy korreksion vosita hisoblana

Autizm spektr buzilishi bo'lgan bolalarda og'zaki nutqning kechikishi, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, sezgi tizimlarining nomutanosibliigi keng uchraydigan belgilar



Date: 27th April-2026

sirasiga kiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, autizmli bolalarning aksariyatida sensor tizimlarda — eshituv, ko‘rish, vestibulyar, proprioseptiv va taktil sohalarida funksional buzilishlar kuzatiladi. Bu esa nutqni qabul qilish, qayta ishlash va ifodalash jarayonlarini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shu sababli autizmli bolalar bilan ishlashda oddiy nutq mashqlaridan ko‘ra, avvalo sensor tizimlarni rivojlantirish, ularning sezgi-idrok jarayonlarini normallashtirish, shundan keyingina og‘zaki nutqni shakllantirish eng samarali yondashuv hisoblanadi. Asosiy qism. Autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalarda nutq buzilishining sabablari ko‘pincha quyidagi omillar bilan bog‘liq: Eshituv sezgirligining buzilishi kuzatilganda, autizmli bolalarda tovushlarni qayta ishlash jarayoni notekis kechadi. Ba‘zilarida tovushlarga ortiqcha sezgirlik bo‘lsa, boshqalarda eshituv sezgirligi juda past bo‘ladi. Bu holat fonematik eshituv shakllanishiga to‘sqinlik qiladi va nutq tushunishini sekinlashtiradi. Taktil sezgirlikdagi nomutanosiblik kuzatilganda, bolalar teginishdan qo‘rqishi, qo‘li bilan predmetlarni ushlabdan qochishi yoki aksincha, haddan tashqari ko‘p stimulyatsiyaga ehtiyoj sezishi mumkin. Taktil tizimdagi buzilish motorika va artikulyatsiya harakatlarini boshqarishni qiyinlashtiradi. Ijtimoiy muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklari bo‘lganda, ko‘p autizmli bolalar ko‘z bilan aloqa qilmaydi, imo-ishora ishlatmaydi, savollarga javob bermaydi. Bu nutqning ijtimoiy komponentini shakllanishiga salbiy ta‘sir qiladi. Sensor ortiqcha yuklanishlar tashqi muhitdagi yorug‘lik, tovush, hid, teginish kabi stimullar bolani chalg‘itib, nutqiy mashg‘ulotlarga to‘sqinlik qiladi. Ushbu omillarni bartaraf etish sensor sohani rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Sensor rivojlanish og‘zaki nutq shakllanishida quyidagi funksiyalarni faollashtiradi:

- fonematik eshituvni yaxshilaydi;
- tovushlarni idrok etish va farqlash jarayonini faollashtiradi;
- muloqotga kirishish motivatsiyasini oshiradi;
- artikulatsiya organlarining harakatini boshqarishni osonlashtiradi;
- kuzatuvchanlik, diqqat va xotira jarayonlarini kuchaytiradi.

Sensor tizimlar uyg‘unlashganda bola atrof-muhitni yaxshiroq qabul qiladi, bu esa nutqning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Sensor integratsion mashg‘ulotlar texnologiyasi — bu maktabgacha yoshdagi, ayniqsa autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalarda sezgi tizimlari faoliyatini uyg‘unlashtirish, sensor signallarni qayta ishlashni yaxshilash va nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvdir. Ushbu texnologiya A. Ayresning ilmiy ishlanmalariga asoslanadi. Sensor integratsiya — bu organizmga kelayotgan sensor ma‘lumotlarning markaziy asab tizimi tomonidan bir butun jarayon sifatida qayta ishlanishi, tahlil qilinishi va maqsadga yo‘naltirilgan harakat yoki nutqiy javobga aylanish jarayonidir. Autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalarda ko‘pincha quyidagi buzilishlar kuzatiladi: •eshituv sezgirligining buzilishi; •taktil tizimdagi nomutanosiblik; •vestibulyar tizimning ortiqcha yoki sust ishlashi; •proprioseptiv sezgilarning yetarli bo‘lmasligi. Bu buzilishlar nutqni qabul qilish, eshituvni farqlash, artikulyatsiya harakatlarini boshqarish va ijtimoiy muloqotga kirishishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sensor integratsiya texnologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: . Ko‘p sensorli stimulyatsiya – bolada bir vaqtning o‘zida bir nechta sensor tizim faollashtiriladi. O‘yinli yondashuv – har bir mashq bolaga qiziqarli va motivatsion shaklda beriladi. . Individual sensor profil asosida ishlash – har bir



Date: 27th April-2026

bolaning sensor zaif va kuchli tomoni inobatga olinadi. Yuklamaning bosqichma-bosqich oshirilishi – ortiqcha yuklama oldini oladi. Neyropsixologik asoslangan mashqlar – har bir mashq ma’lum sensor tizimni nishonga oladi. Sensor integratsiya texnologiyasi mashg’ulotlari turli sezgi tizimlaridan olingan ma’lumotlarni markaziy asab tizimi orqali birlashtirishga, ularni muvofiqlashtirishga va bolaning nutqiy, motorik hamda emotsional rivojiga yordam berishga qaratilgan. Natija. Sensor integratsion mashg’ulotlar texnologiyasini maktabgacha yoshdagi, ayniqsa autizm spektr buzilishi bo’lgan bolalar bilan ishlash jarayonida qo’llash

natijasida bolaning nutqiy, kognitiv, emotsional va motorik rivojlanishida sezilarli ijobiy o’zgarishlar kuzatiladi. Ushbu texnologiya sezgi tizimlarining faoliyatini uyg’unlashtirishni ta’minlagani uchun bola atrof-muhitdan kelayotgan axborotni yaxshiroq idrok etadi, uni qayta ishlash mexanizmlari takomillashadi va natijada nutq jarayonlari faol ravishda shakllana boshlaydi. Birinchidan, sensor tizimlarning integratsiyalashuvi fonematik eshituvni, tovushlarni ajratish va farqlash qobiliyatini kuchaytiradi. Bu, o’z navbatida, og’zaki nutqning shakllanishida asosiy o’rin tutadi. Eshituv tizimidagi jonlanish nutqni tushunish, savollarga javob berish va dialogik muloqotga kirishish ko’nikmasini rivojlantiradi. Ikkinchidan, taktil, propriozeptiv va vestibulyar tizimlarni faollashtirish orqali artikulyatsion apparat faoliyati kuchayadi, nafas va ovoz chiqarish jarayonlari barqarorlashadi. Bunda nutqning tovush tomoni sezilarli darajada yaxshilanadi, jumladan, tovushlarning to’g’ri talaffuzi va nutqning ravonligi ortadi. Uchinchidan, sensor mashqlar bola miyasida yangi neyron aloqalarning shakllanishiga yordam berib, diqqat, xotira, tafakkur, muvozanat va koordinatsiya kabi kognitiv ko’nikmalarni rivojlantiradi. Kognitiv jarayonlarning faollashuvi bolaning nutq orqali o’z fikrini ifodalashiga bevosita yordam beradi. To’rtinchidan, sensor integratsiya mashg’ulotlari orqali bolada muloqotga kirishish istagi va ijtimoiy faollik ortadi. Autizmli bolalarda ko’z bilan aloqa, navbat kutish, ijtimoiy signallarga javob berish kabi ko’nikmalar asta-sekin shakllanadi. Bu esa nutqning kommunikativ funksiyasini rivojlantiradi. Beshinchidan, sensor tizimlarning normallashtirish bolaning umumiy psixoemotsional holatini yaxshilaydi. Stress darajasi pasayadi, tajovuz, qo’rquv, o’zini yakkalash kabi holatlar kamayadi. Emotsional barqarorlik nutq chiqarish jarayonini osonlashtiradi. Umuman olganda, sensor integratsion mashg’ulotlar texnologiyasi og’zaki nutqning shakllanishi, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi uchun poydevor yaratadi. Rivojlanishning barcha sensor, motorik va emotsional komponentlarining uyg’unlashuvi tovush chiqarishdan tortib, bog’lanishli nutqqa qadar bo’lgan jarayonlarni qo’llab-quvvatlaydi. Mazkur texnologiyaning ilmiy jihatdan isbotlangan samaradorligi shuni ko’rsatadiki, sensor integratsion yondashuv autizm spektr buzilishiga ega bo’lgan bolalar uchun eng muhim va zaruriy korreksion metodlardan biri hisoblanadi. Uning muntazam qo’llanilishi nutq rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtiradi va bola kundalik hayot faoliyatida mustaqil ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi autizm spektr buzilishi bo’lgan bolalarda og’zaki nutqni rivojlantirish murakkab, ko’p bosqichli jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, autizmli bolalarning ko’pchiligida nutqning



Date: 27th April-2026

kechikishi asosiy jihatdan sensor tizimlar faoliyatining buzilishi bilan bog'liq. Shuning uchun

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B.70-71.
2. Z.M.Ahmedova, M.Yu.Ayupova, M.P.Xamidova Logopedik uyin. Toshkent-2013
3. Л.С.Выготский, Педагогическая психология .М.Педагогика-Пресс 1996.
4. Е.Н.Винарская, Раннее речевое развитие ребенка и проблемы дефектологии: Периодика раннего развития . Эмоциональные предпосылки освоения языка – М: Просвещение 1987.
5. О.Е.Грибова, Технология организации логопедического обследования.Методическое пособие.- М: Айрис-пресс,2005.
6. Р.Е.Левина, Воспитание правильной речи у детей-М: Издательство Академии педагогических наук 1958.
7. L.R.Muminova, Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va maktabga tayyorlov gurux bolalari nutkini xalk uyinlari asosida rivojlantirish texnologiyasi. T: Fan va texnologiya 2014 .
8. Г.В.Чиркина, Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. М: 2008.
9. С.Н.Шаховская, Логопедия. Москва-Владос 2003
10. [CHARACTERISTICS OF THE SPEECH THERAPIST'S ACTIVITY IN THE GENERAL EDUCATION SCHOOL IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION](#)
SK Shoakhmedova
The American Journal of Social Science and Education Innovations 4 (11), 17-22
11. [USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN WORK WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS](#)
SK Shoakhmedova - The American Journal of Interdisciplinary Innovations ..., 2022
12. [GOALS AND TASKS OF ORGANIZING INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS](#)
SK Shoakhmedova American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 3 (10), 60-66
13. [NUTQI RIVOJLANMAGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN ASOSIDA SO'Z BOYLIGINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA KORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING MAZMUNI, USULLARI VA TASHKIL ETILISHI](#)
S Shoaxmedova, N Arifxanova - Инновационные исследования в науке, 2024



Date: 27th April-2026

14. Methods Of Developing The Vocabulary Of Children With Underdeveloped Speech
And Testing Methodology

S Shoakhmedova - American Journal of Advanced Scientific Research, 2024

